

O‘ZBEKISTON TA’LIM TIZIMIGA “4K” MODELINING JORIY ETILISHI VA UNING AHAMIYATI

**Mamashokirova Fotima Kenjaboy qizi
ADPI talabasi**

Annotatsiya: Ushbu maqolada “4K” modeli haqida umumiy tushunchalar, O‘zbekiston ta’lim tizimida “4K” modelining qo‘llanilishi, bu modelning ahamiyatli taraflari to‘g‘risida ma’lumotlar keltirilgan.

Kalit so‘z: “4K” modeli, ta’lim tizimi, kollaboratsiya, kommunikativlik, kreativ fikrlash, kritik (tanqidiy) fikrlash, innovatsiya, yondashuv, metodologiya, PISA, Platforma.

Xalq ta’limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida o‘qitish metodikasini takomillashtirish vazifasi belgilangan. Shunga muvofiq, darsliklarni yangilash bo‘yicha muayyan ishlar bajarildi. Xususan, ilg‘or xorijiy tajribalar asosida 1-4-sinf darsliklari yangidan “4K” modeli asosida tayyorlandi. “4K” modelidan foydalanish ko‘plab sinovlardan o‘tgan, muhimi, zamonaviy yondashuvdir. Biz avvallari bolalarning yozuviga ko‘proq e’tibor qaratganmiz, diktantlar yozdirganmiz. Yangi tajriba bilan esa o‘quvchilarning tanqidiy fikrlashi, o‘z fikrini erkin bayon eta olishiga ko‘proq ahamiyat beriladi. Ushbu yangi zamonaviy maktab darsliklari innovatsion yondashuvni taqdim etadi.

Yangi o‘quv yilidan boshlab boshlang‘ich sinf o‘quvchilari yangi avlod darsliklari asosida ta’lim oladi. Darsliklarning asosiy xususiyatlaridan biri – ularning 4K tamoyili asosida ishlab chiqilganidir. Ya’ni bu tamoyilda quruq ma’lumotlarni yodlatish yoki shunchaki o‘qish va yozishni o‘rgatish bilan cheklanilmaydi. Bugungi kunda ta’lim muassasalarida sifatli ta’limni ta’minlash, o‘quvchilarni zamonaviy dars o‘tish metodikalari va axborot texnologiyalari orqali fanlarga qiziqtirish borasida qator islohotlar olib borilmoqda. Hozirgi vaqtda o‘quvchilardan tahlil, mushohadaga tayangan holda tanqidiy hamda ijodiy fikrlash, atrofidagi insonlar bilan sog‘lom hamkorlik qilish hamda moslashuvchan bo‘lishi talab etiladi. Bunda ta’lim jarayoniga keng tatbiq etilayotgan “4K” modeli o‘quvchilarga yordam beradi. “4K” boshlang‘ich sinflarda qo‘llanishi boshlanayotgan yangi tamoyil hisoblanadi. “4K” modeli o‘z nomi bilan 4 ta tamoyilni o‘z ichiga oladi:

- ✓ **Kollaboratsiya**
- ✓ **Kommunikativlik**
- ✓ **Kreativ fikrlash**
- ✓ **Kritik (tanqidiy) fikrlash**

Kollaboratsiya: Darsliklar o‘quvchilarning jamoada ishlash qobiliyatini rivojlantirishga yordam beradigan tarzda tuzilgan. Bu o‘quvchilarga hamkorlik qilish, samarali fikr almashish va o‘zaro qo‘llab-quvvatlash ko‘nikmalarini o‘rganishga ko‘maklashadi. O‘quvchilarning jamoada ishlash ko‘nikmasini rivojlantirishda dasr jarayonlarida o‘quvchilar bilan umumiy maqsadlarni muhokama qilish, o‘z harakatlarini jamoadoshlarining harakatlari bilan muvofiqlashtirish, ma’lum bir maqsadga erishishda jamoa bo‘lib harakat qilishga alohida urg‘u beriladi.

Kommunikativlik: Darsliklar o‘quvchilarning boshqalar bilan muloqot qilish qobiliyatini rivojlantirishga qaratilgan. O‘quvchilar o‘z fikrlarini aniq, ravshan ifodalashga, suhbatdoshni tinglashga va tushunishga, ma’lumotni yetkazishda til vositalaridan unumli foydalanishga o‘rganadi. O‘quvchilarda muloqot qilish ko‘nikmasini shakillantirishda bolalarning muloqotdan cho‘chimaslik, suhbatdoshiga savollar berish va ularga javob berish ko‘nikmasini shakillantirish, boshqa odamlarning fikrini tinglashni o‘rganish jihatlariga alohida e’tibor beriladi.

Kreativ fikrlash: O’quvchilar o’z maqsadlariga erishish uchun yangi yondashuvlarni qo’llashni o’rganadi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqadilar va ijodiy muammolarni hal qilish ko’nikmalariga ega bo’ladi. Ushbu yo’nalishda o’quvchilarning tevarak atrofga qiziqish, u haqida ko’roq bilishga intilish va bunda axborotni mustaqil izlash, o’z savollariga javob topish qobiliyatini shakllantirish ustunlik qiladi. Shu bilan birga o’z maqsadlariga yetishda samarali usullardan foydalanish, berilgan muammolarga samarali yechim topish, yangi g’oyalarni ishlab chiqish va takomillashtirish kreativ fikrlashning asosini tashkil etadi.

Kritik (tanqidiy) fikrlash: Ushbu metodologiya o’quvchilarning axborotni tanqidiy baholash, o’z fikri va mulohazalarini shakllantirish ko’nikmalarini rivojlantirishni o’z ichiga oladi. O’quvchilar muammolarga tahliliy nuqtayi nazardan yondashishni o’rganadi va mantiqiy fikrlash asosida o’z nuqtayi nazarini shakllantiradi. Tanqidiy fikrlashni shakllantirish barobarida o’quvchilarda tahlil va vaziyatni tog’ri baholash ko’nikmalari ham rivojlanadi. Shuningdek o’quvchilarning o’z o’zini boshqarish va tekshirish, mulohaza yuritish, mavjud muommoga turli nuqtai nazardan baho berish qobiliyatini shakllantirishda mazkur yo’nalishning o’rni katta.

Ushbu muhim kompetensiyalarni rivojlantirishga yordam berishni istasab, o’quv jarayonini bolalar uchun qiziqarli va foydali tarzda tashkillashtirishimiz kerak. Maktabdagi har bir dars o’quvchilar faqat fan mazmunini o’zlashtiradigan emas, balki mustaqil bilim oladigan va qobiliyatini rivojlantiradigan jarayondir. Boshlang’ich sinflar uchun yangi darsliklar esa kelajagimiz egalari bo’lmish yosh avlodni har tomonlama rivojlantiribgina qolmay, balki zamonaviy jamiyatga muvaffaqiyatli moslashish uchun zarur bo’lgan ko’nikmalarni ularda shakllantirishga qaratilgani bilan yanada ahamiyatlidir. 4K modelining 4ta tamoyilini ishlab chiqishda xalqaro dasturlar tomonidan o’quvchilarning muvaffaqiyatlarini baholashda qo’llaniladigan namunaviy topshiriqlar o’rganib chiqildi va asos qilib olindi (PISA, PIRLS, TIMSS, EGMA, EGRA).

PISA dasturida 15 yoshli o’quvchilar uchun tegishli kreativ fikrlash tavsifidan foydalanadi. PISA tadqiqotida kreativ fikrlash bilim sohasida original va samarali yechimlar, yutuqlar va ta’savvurni ta’sirchan ko’rinishlarga olib keladigan g’oyalarni ishlab chiqish, baholash va takomillashtirishda samarali ishtirok etish qobiliyati deb ta’riflanadi. O’quv metodik komplekslar faol o’quv jarayoni uchun to’liq materiallar to’plami: darsliklar, mashq daftarlari, o’qituvchilar uchun uslubiy qo’llanmalarni o’z ichiga oladi. O’quvchilar uning yordamida o’zlashtirgan materialni mustahkamlash bilan birga, mustaqil ravishda dasturdan ilgarilab ketishlari ham mumkin.

Xulosa qilib shuni ta’kidlash joizki, bolalar bir xillikdan zerikadi. Endi faqatgina kreativ o’ylagan insongina hammadan ajralib tura oladi. Ijodiy sermahsullik, bazaviy resurs boshqacha qilib aytganda sohaga bog’liq qobiliyatlar, jumladan, bilim va texnik ko’nikmalar bo’lib, ularni yangicha usulda birlashtirish uchun kerak bo’ladigan qobiliyatlar tayyor qo’llanmalardan voz kecha olish kabi zarur motivatsiyani taqozo etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Gafforov Ya. X. (2020). Methods for developing a system of teaching history and increasing the effectiveness of history teaching. Индия. EPRA International Journal of Multidisciplinary Research. 2020, 108.
2. G’afforov Ya. X. Maktab islohdagi Maktab islohditi va ukitiш metodlarini takomillashtirish. Science and education. Sgientific Journal. 2020, 482.
3. Toshtemirova S. A. (2020). Ta’lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzluksiz ta’lim. No 1 (86). -S.5
4. Gafforov Ya. X. (2019). Technical approach in the education system. International journal on Integrated Education. England. 2019. 40-41